

O‘zbekiston Respublikasi
Xalq ta’limi vazirligi

**O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va
psixologik-pedagogik respublika tashxis
markazi**



**Badiiy ijod va hamkorlikdagi faoliyat,
hayotiy ko‘nikmalar va do‘stona munosabat
muhitini yaratish**

nomli metodik tavsiva



Toshkent 2022-yil

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi Ilmiy metodik Kengashining 2022-yil 28-iyundagi 2-sonli yig‘ilish qarori bilan ma’qullangan.

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori **L.R.Gaynutdinov**ning umumiy tahriri ostida tayyorlandi.

Tuzuvchilar:

S.Mo‘minov	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti
M.Kasimova	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti
G.Alimova	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti

Taqrizchilar:

F. Qodirova	Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasida mudiri p.f.d., (Dsc) professor.
L. Tursunov	p.f.d., dotsent. Nizomiy nomidagi TDPU Amaliy psixologiya kafedrasida dotsenti.
Q. Matxoliqov	t.f.n., Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Jahon tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi.
Sh. Axmedova	Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi Inklyuziv ta’lim laboratoriyasi bo‘limi metodisti

Ushbu “Badiiy ijod va hamkorlikdagi faoliyat, hayotiy ko‘nikmalar va do‘stona munosabat muhitini yaratish“ nomli metodik tavsiya umumta’lim maktablaridagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, maxsus o‘qituvchilar, maktab psixologlari, umumta’lim maktabi qoshidagi logopedik shoxobcha logopedlari, maxsus pedagogika yo‘nalishi talabalari (Tyutorlar) hamda ota-onalar uchun mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-9245-8-4

© Tashxis markazi, 2022

Kirish

Poytaxtimiz Toshkent shahrining markazida joylashgan O‘zbekiston milliy bog‘iga mutafakkir Alisher Navoiy haykali o‘rnatilgan. Uni o‘rab turgan moviy gumbaz ostida shoirning quyidagi misralari bitilgan.

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,

Yor o‘lung bir-biringizgaki, erur yorlig‘ ish.

Ushbu misralar zahirida insoniyat kamolotga yetishmoqligi uchun ma’lum bir kasb-hunar egallamoqligi hamda ilm-u hunar egallamoqligi joizligi, hayot faoliyatida maqsadli ish bilan shug‘ullanishi haqida aytib o‘tilgan. Hozirgi murakkab va tahlikali zamonda yetishib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama aqlli, dono hamda ilmiy qilish maqsadida tinimsiz harakat qilinmoqda. Vaqt o‘tgan sayin axborot texnologiyalari soat sayin rivojlanib bormoqda. Shu bois yoshlarni turli xil g‘ayri odatiy mafkuralardan xolis qilib ilm-hunar o‘rgatishni talab qilmoqda. Ilm va hunar shunday narsaki yosh, chegara hamda to‘siq tanlamaydigan cheksizlikdir. Har bir inson qaysi sohada faoliyat olib borishidan qat’iy nazar ilm olishga harakat qiladi, izlanadi. Buxoro amirlaridan biri Xolid ibn Ahmad buyuk bobomiz al-Buxoriy huzuriga ilm olish maqsadida dunyoning turli tomonlaridan kelayotgan odamlar oqimini ko‘rgach, u ham bolalarini o‘qitmoqchi bo‘ladi va olimga chopar yuborib, saroyga kelib, ularga alohida dars berishini aytadi. Choparning gaplariga javoban al-Buxoriy ilm olmoqlik Rasululloh sunnati ekanligini ta’kidlab “Men ilmni xor qilmayman, uni hukmdor eshigiga olib bormayman” – deb javob beradi. Eshitayotganingizdek ilm olish kasb-hunar egallash uchun har qanday sog‘lom bo‘ladimi, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchi bo‘ladimi haqlidir. Biz har doim har qanday vaziyatda bo‘lsa ham faqat ular uchun sharoit yaratmoqligimiz, hech qanday kamsitishlarga yo‘l qo‘ymasligimiz lozimdir. Imom al-Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” asaridagi quyidagi hadis keltirilgan: **Mo‘minlarning bir birlariga ko‘maklashmoqlari (lozimligi) haqida.** Alloh taolo “Yaxshilikka ko‘mak bergan kishi yaxshi nasiba

olg‘usidir, yomonlikka ko‘mak bergan kishi yomon nasiba olg‘usidir! Alloh hamma narsaga qodirdir!” - deydi. Abu Muso rivoyat qiladilar: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam, agar biror gado yoki hojadmend kishi huzurlariga kirib kelsa: “Ko‘mak qilingiz, savob topg‘aysiz! Alloh taolo o‘z rasulining tilidan uning istagan narsasini aytirib, hojatini chiqarg‘aydir!” – dedilar.

Aziz kitobxon biz bu kabi hikmatlarni bekorga keltirganimiz yo‘q chunki jamiyatimizda siz-u biz bilan yonma yon alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar kamol topishi lozimdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarorining qabul qilinishi buning yaqqol dalilidir. Ushbu qarorda alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar inklyuziv ta‘lim orqali endilikda umumta‘lim maktablarida sog‘lom bolalar bilan birgalikda ta‘lim oladi. Kasb-hunar egallaydi. Maktab yoshidan boshlab ijtimoiy hayotga kirib keladi.

Inklyuziv ta‘limning maqsadi: alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun umumta‘lim maktablarida maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta‘lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladi. Inklyuziv ta‘limni bosh g‘oyasi rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta‘minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratishdir. Jamoatchilik hamda ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Har bir o‘quvchini o‘ziga yarasha qiziqishi va layoqati mavjud bo‘ladi. Bu o‘quvchini sog‘lom yoki alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lganligiga ham qaramaydi. Alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar juda chiroyli yozaolmas, burro gapiraolmas lekin unda kuchli ijodkorlik, bunyodkorlik bo‘lishi mumkin. Ular juda ham chiroyli rasm chizishi, kuchli badiiy ijod qilaolishi, badiiy qurish-

yasashi mumkin. Insonni qachonki ruhiyati o'lsa u nogiron bo'ladi, tashqi imkoniyatlarning cheklanganligi nogironlik hisoblanmaydi. Bunday o'quvchilardan noyob iste'dod egalari, g'aroyib ixtirolar egasi bo'lishi muqarrardir.

Boshlang'ich ta'limda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari

Bugungi kunda uslubiy va ko'pchilik ilmiy adabiyotlarda "ijod", "ijodkorlik" kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning paydo bo'lganligi bejiz emas. "Ijod" so'zining lug'aviy ma'nosi: "yaratish", "yangilikni kashf etish" so'zlariga to'g'ri keladi. Ijodkorlik-faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan, namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi. Shaxsda hayot faoliyatida ehtiyoji hayotida yangi ilgari maqsad qilib qo'yilmagan, hal etuvchi vosita bo'lib hisoblanmagan intilishdir.

Ijodkorlik - sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayonidir. Ijodkorlik o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Obyektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo'lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi. Ya'ni: Ixtirochi, tashkilotchi, ilmiy hamda badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;

- standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;

- o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

Boshlang'ich ta'limda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo'lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushuniladi.

Ular quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari;

2. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi;

3. Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg'ulotlar evristika muammoli vaziyatlar yaratish;

4. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi:

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda ular egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- berilgan dastur materiallarni qay darajada o'zlashtirganligi;
- mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o'zlashtirganligi;
- tanlagan mavzu bo'yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi;
- o'rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi;
- topshiriqlarni bajarishda o'quv ashyolari va texnika vositalar, axborot texnologiyasidan foydalana olishi;

- o'z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi;

-mavzu bo'yicha o'z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo'ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi ;

- mavzularni o'rganishda o'z fikrini qisman bo'lsa ham dalillay olishi;
- o'z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Mazkur talablar o'qituvchiga alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlari, ularning o'quv-biluv faoliyati, individual moyilliklarini bilish imkoniyati paydo bo'ladi va bu borada o'quv jarayoni tuzilmasini belgilab olishga yordam beradi.

Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarida chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa: kichik maktab yoshidagi alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada:

1. O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash;
2. O'qituvchi va o'quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish;
3. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

Hozirgi davrda o'quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan evristik va muammoli ta'lim o'quv-biluv jarayoniga faol kirib kelmoqda. V. Karimova o'z tadqiqotlarida ilmiy faoliyatni ushbu uch turi amalga oshirilganda shaxsning unga mos bo'lgan sifatlari:

- 1) O'quvchilar tomonidan tashqi olamni kuzatish jarayonida zarur bo'ladigan sifatlari;
- 2) O'quvchilar uchun faoliyatning ijodiy mahsulini yaratish sharoitlarini ta'minlovchi ijodiy faoliyat sifatlari;
- 3) O'quvchilar bilish faoliyatini tashkil etganda uning oldingi ikki holatda-bilish va ijod holatida ko'rinadigan sifatlari namoyon bo'lishini ko'rsatib o'tadi.

Quyida sanab o'tiladigan sifatlar ijodiy izlanishli ta'lim turini rejalashtirish, tashkil etish va samaradorligini nazorat qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijodiy faoliyat sifatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ehtirosli-obrazli sifatlar: ijodiy vaziyatlardan ilhomlanish, zavqlanish, jo'shqinlik;

- obrazlilik, uyushganlik, yangilik va g'ayrioddiylikni his etish, ziddiyatlarga nisbatan sezgirlik, ijodiy moyillik, ichki kurashlarni sinashga bo'lgan qobiliyat, ramziy ijodkorlik va boshqalar;

- tashabbuskorlik, kashfiyotchilik, zehn, o'ziga xoslik, har xillik, nostandartlik;

- g'oyalarni topishga, ularning individual, o'zga insonlar bilish obyektlari bilan munosabatlariga nisbatan qobiliyati;

- maktabda, oilada va boshqa ijtimoiy muhitda beriladigan axloq me'yorlarini saqlab qolish ko'nikmasi bilan uyg'unlashadigan fikrlar, tuyg'ular va harakatlar erkinligi;

- sezgirlik, tanish narsalarni notanish narsalarda ko'ra olish va aksincha, muammolarni hal etishda stereotiplarni yenga olish, o'zgacha makonga chiqish qobiliyati;

- o'rganilayotgan obyekt bilan dialog olib bora olish; bilish metodlarini tanlay olish; obyektning o'xshash obyektlar bilan vazifa va aloqasini topish;

- obyektlarning o'zgarishi, uning o'sish yoki rivojlanish dinamikasini aniqlash;

- obyektning xossalariga ko'ra bilishning yangi metodlarini yarata olish;

- gipotezalarni ta'riflay olish taxminiy fikrlar, qonuniyatlar, formula, nazariyalarni konstruksiyalash, intuitsiya, meditatsiyaga ega bo'lish;

- o'z qobiliyatini ijodiy ishlarni bajarish va himoyalash shaklida amalga oshirish, tanlovlar, olimpiadalarda ishtirok etish tajribasiga ega bo'lish.

Bilishga doir sifatlar:

- fiziologik sifatlar: o'rganilayotgan obyektни ta'lim yordamida ko'rish, eshitish, sezish, his eta bilish; ish qobiliyati, shijoatni tarbiyalash;

- intellektual sifatlar: qiziquvchanlik , zehnlilik, mulohazalilik, ziyraklik, mantiqiylik, onglilik dalillash, analitik, sintetik o'xshashini topa olishga qodirlik, isbotlashning turli shakllaridan foydalanish, ishqibozlik;

- sinchkovlik, zakovatlilik, muammolarda izlanuvchanlik, tajribalarga moyillik, savollar bera bilish, ziddiyatlarni ko'ra olish, muammo va gipotezalarni ta'riflay olish, nazariy va amaliy tadqiqotlarni bajara olish, turli xil topshiriqlarni yechish usullariga ega bo'lish, xulosa va umumlashmalar qilish, harakatning tezkorligi tafakkurining xilma-xilligi;

- shaxsiy faoliyatida aks etgan madaniy me'yorlar va an'analarga ega bo'lish;

- o'z bilimlari va olgan natijalarini dalillay bilish;

- tanlash vaziyatlarida tanlay bilish;

- paydo bo'lgan har qanday muammo bo'yicha o'zining tushingani yoki tushunmaganini bildirishga qodirlik;

- o'zgalar nuqtai nazarini tushunish va baholay olish, mazmunli dialog yoki munozarali chiqishlar qilish;

-o'rganilayotgan sohalarni tizimli ko'ra bilish;

- obyektlar aloqalari, ularning sabablari, ular bilan bog'liq muammolarni izlab topish;

- har qanday obyekt va hodisa (tabiat, madaniyat, siyosat va hokazo) mohiyatini aniqlashga to'g'ri yondasha bilish;

- obyektlar orasidan asosiysini tanlay bilish, ular orasidagi bir-biriga bog'liqlikni izlash;

- tanilgan obyektlarning yangi vazifalari va aloqalarini ko'ra bilish;

- obyektning kelib chiqish sabablarini izlashga qodirlik, obyektning ma'nosi, uning manbaini topishga qodirlik;

- o'rganilayotgan fanlar bo'yicha, tayanch bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish;

- o'rganilayotgan bilimning asosiy muammolarini mo'ljalga olish;

- ta'lim samarasi va sinfdoshlarining erishgan natijalarni qiyoslay bilish, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ajratish, shaxsiy ta'limiy natijalarni qayta aniqlash yoki qayta ishlash;

- madaniy-tarixiy o'xshashliklarning kelib chiqish (namoyon bo'lish) sabablarini izlashga qodirlik, uning tuzilishini aniqlay bilish, o'xshash ideal obyektlar bilan aloqalarni topish, ideal obyektlar tizimini tuzish, ularning shakllangan tamoyillar va mezonlar asosida madaniy- tarixiy o'xshashliklarning tegishli real obyektlar bilan aloqalari tizimini anglay bilish;

- ma'naviy, moddiy va faoliyat shaklida erishilgan bilimlarni ro'yobga chiqarishga qodirlik.

Tashkiliy faoliyat sifatleri:

- o'quvchi tomonidan o'zining individual xususiyatlarini, fe'l-atvoridagi belgilarini, har bir o'quv fani va ta'lim sohasidagi mashg'ulotlarning maqbul shakllarini bilish;

- mavzu yoki boshqa o'quv fanidan o'z mashg'ulotining maqsadini anglab olish va tushuntira bilish, nimalarni bajarayotganini aniq tushuna bilish;

- yangi yoki erishilmagan yaxshi maqsad, unga erishish dasturining mavjudligi, ishni oxirigacha yetkazish uchun qat'iyat, maqsadga sodiqlik; maqsadni qo'ya bilish, maqsadga intiluvchanlik maqsadga erishish uchun qat'iyatlilik;

- berilgan bilim sohasiga yoki faoliyatga o'quv maqsadini qo'ya bilish, unga erishish rejasini tuza olish;

- o'zining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan rejani bajarish;

- o'z natijasini olish va anglash;

- uni sinfdoshlarining shunga o'xshash natijalari bilan qiyoslash;

-egallangan malakada ifodalanadigan faoliyat qoidalari, uning qonunlari tizimini shakllantirish,

- faoliyat natijalarini prognozlash;

- o'z-o'zining faoliyatini rejalashtirish;

- harakatni dasturlash, faoliyat bosqichlari va usullarini yaxshilash, harakatning o'zgaruvchanligi rejalarning bajarilishi; faoliyatga yondashuvning xilma-xilligi, ayni paytda turli xil muqobillarini esda saqlash;

- o'zining keyingi o'qish rejasini tuza bilish;

- faoliyati ma'no mazmunini aniqlash, natijalarni maqsadlar bilan birlashtira olish, o'z-o'zini kuzatish, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholay bilish;

-ta'limning boshqa sub'ektlari bilan hamda atrof-olam bilan o'zaro harakatga qodirlik;

- o'z g'oyalarini himoya qila bilish, atrofdagilarning mulohazalarini tinglay olish, "zarbaga dosh berish";

- mustaqillik, intiluvchanlik, qat'iyatlilik, kirishimlilik;

-o'zgalar ijodiy faoliyatini tashkil etishga qodirlik, boshqa o'quvchilar bilan birgalikda g'oyalar yaratish, unda ishtirok etish;

- g'oyalar, bahs, munozaralarni qiyoslash va chog'ishtirish.

Shunday qilib evristik ta'lim, integratsion qobiliyat: ijodiy qobiliyat, bilishga doir hamda faoliyatga oid qobiliyatga tayanadi. Demak, evristik ta'lim deyilganda o'quvchining ta'lim samaradorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat va harakatni amalga oshirishdagi kompleks imkoniyatlari tushuniladi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar maqsadlarini quyidagicha guruhlash mumkin;

Shaxsga yo'nalgan maqsad- ta'lim maqsadini idrok etish, o'zida ishonch hosil qilish, o'zining potensial imkoniyatlari, aniq individual qobiliyatlarini amalga oshirish;

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga doir maqsad mavzuni tuzish, sharhli insho, texnik modellarni konstrksiyalash, rasmlar chizish va boshqalar;

Bilishga oid maqsad- atrofdagi borliq obyektlarini bilish; paydo bo'lgan muammolarni yechish usullarini o'rganish, birinch manbalar bilan ishlash malakasiga ega bo'lish, tajriba qo'yish, tajribani o'tkazish;

Tashkiliy maqsad- o'quv faoliyatini o'zi tashkil etish malakasiga ega bo'lish, o'z oldiga maqsad qo'ya bilish va faoliyatni rejalashtirish. Jamoada ishlash malakasini rivojlantirish, munozara olib borish texnikasini egallash;

Boshlang'ich ta'lim dasturlari, o'qitilayotgan o'quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko'rsatadiki, 1-4- sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga yo'naltirilgan o'quv materiallarini to'g'ridan-to'g'ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo'lsa-da, mahoratli o'qituvchi o'z faoliyatini o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin. Og'zaki so'rash; yozma ishlar o'tkazish; amaliy ishlarni bajarish; turli didaktik o'yinlar o'tkazish orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarning "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun o'quv materiallarida berilgan tushunchalar konkret – induktiv metod vositasida o'rganilishi va o'qituvchining mohirona darsni tashkil qilishi natijasida ularda ijodiy faollikning oshishiga zamin yaratilishi mumkin. Bunda o'quvchilar avval o'qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o'rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalarini aniqlaydilar, so'ngra o'qituvchi rahbarligida ta'rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Yangi tushuncha kiritishning bu yo'li ayniqsa quyi sinflarda o'z samarasini beradi. Bundan tashqari konkret induktiv yo'l orqali tushunchalarni kiritish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil bo'ladi, buning natijasida o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Tasviriy san'at darslarida badiiy ijodni shakllantirish

Umumta'lim muassasalarida Tasviriy san'at va badiiy ijod o'quvchilarning har tomonlama uyg'un rivojlanishiga xizmat qilib, u bolalarda ijodiy qobiliyatlarni va badiiy didni o'stirishda, ularni axloqiy jihatdan tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabda tasviriy san'at va badiiy ijod o'tkaziladigan mashg'ulotlar quyidagi vazifalarni amalga oshirishni kuzda tutadi:

- bolalarni borliqdagi narsa va ro'y berayotgan hodisalarni ko'ra bilish, idrok etishga hamda ulardan olgan his-tuyg'u va tushunchalarni hayotga tadbiq etishga o'rgatish;

- estetik va emotsional sezgirlikni o'stirish;

- tasviriy va badiiy ijod malakalarini shakllantirish;

- bolalarda muntazam va maqsadga muvofiq ravishda ko'rib idrok qilishni, rang sezishni, kompozitsion (tuzish) madaniyatni, fazoviy fikrlash va fantaziyani, ko'rish orqali tasavvur qilish va bajarish kabi xususiyatlarni rivojlantirish;

- dekorativ-amaliy san'atning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirishda, tasviriy san'at va badiiy ijodga doir barcha o'quv mashg'ulotlarida bolalarda ijodiy qobiliyatni, didni, tasavvurlarini o'stirishga qaratish;

- o'quvchilarni tasviriy va dekorativ-amaliy san'at, me'morchilikning o'ziga xos xususiyatlarini idrok etishni rivojlantirishga yordam berish;

- o'quvchilarda tasviriy san'at asarlariga nisbatan emotsional idrokni, san'atga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash. Tasviriy san'at va qurish-yasash mashg'ulotlari jarayonida olgan bilim va malakalarini maktabda, hayotda qo'llay olishga o'rgatish;

-o'quvchilarni tasviriy san'at va badiiy ijod vositasida ularni borliqqa nisbatan badiiy did bilan qarashga va estetik jihatdan baho berish malakalarini o'stirishga, tabiatni, tarix va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishga, atrof-muhitni asrab-avaylashga undaydi. Tasviriy san'at va badiiy ijod darslarida o'quvchilarni o'quv mashg'ulotlarga qiziqish samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Tasviriy san'at o'quvchilar uchun ijodiy hissiyotlar manbai bo'lib, ularga quvonch keltirmog'i lozim.

1. Amaliy-badiiy faoliyat.

2. Idrok etish.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar jarayonida bolalarda qat'iylik, faollik, o'z kuchiga ishonch hosil qilinadi, shuningdek, mustaqil fikr yuritish va ishlash qobiliyatlarini tarbiyalash yetakchi o'rinni egallay boradi. Bunda o'quvchilar tasviriy san'at sohasida yoshlarga nisbatan muayyan

bilim va malakalarni egallashlari talab etiladi. Bu o'rinda o'quvchilar vazifani ko'rgazmali tarzda obrazlar orqali idrok etishi, ularda yaxlit, jonli taassurotlar orqali tasvirlanadigan obyektga nisbatan analitik yondoshish asosiy metod bo'lib hisoblanadi.

Birinchi sinfdan boshlab idrok etish va kompozitsiya (tuzish, ijod qilish) darslarida o'quvchilarni fazo va undagi rejalilikni ko'rsata olishga o'rgatish juda muhimdir. Shuningdek, 1-4 sinflarda bo'yoq bilan ishlash mashg'ulotlarida ranglarning turli tus va och-to'qligini farqlay bilishga, kerakli ranglarni tanlay olishga o'rgatish asosiy vazifadir. Bu sinflarda ko'proq guash quyuq akvarel buyog'idan foydalaniladi va ular bilan ishlashda aralash usullardan foydalaniladi. Dastur mazmunini o'quvchilar uy vazifalarisiz o'zlashtirishlari lozim. Uy vazifasi sifatida esa ayrim obyekt yoki hodisalarni kuzatishni, shuningdek, amaliy ish uchun tayyorgarlik ko'rishni, sinf ishini yakunlash kabilarni topshirish mumkin.

Tasviriy san'at darslarining mazmunidan kelib-chiqib har bir tugallangan amaliy ish uchun ajratiladigan vaqt rasm chizish, loy bilan bajariladigan ish, dekorativ-amaliy ishlar boshlang'ich sinflarda o'rtacha 1 yoki 2 soat hajmda rejalashtirilishi mumkin. Xotiradan va o'ziga qarab homaki rasm chizish, badiiy materiallar bilan ishlash texnikasini mashq qilish bundan mustasnodir. Ularga 10-15 daqiqa vaqt ajratiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga o'quv yili davomida kundalik va yakuniy baholar qo'yib borishi kerak. Chorak va yillik baholar 5 ballik tizimda amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilarning har bir bajargan amaliy ishlari va savollarga qaytargan og'zaki javoblari hisobga olinadi. Tasviriy san'at fanining o'ziga xos xususiyatlarini va o'quvchilarning badiiy faoliyatiga bo'ladigan alohida qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarni ko'proq rag'batlantirish tavsiya etiladi. Boshlang'ich sinflarda bolalalarga qoniqarsiz baho qo'yish tavsiya etilmaydi.

O'qituvchining bolalar tasviriy faoliyatiga e'tiborsiz qarashi va ularning ishlarini bo'lar bo'lmasga tanqid qilaverishi ulardagi o'quv qo'llanmaga qiziqishlarini susaytirishi mumkin. Shuning uchun bolalarni ko'proq

rag'batlantirish, maslahatlar va takliflar berib, individual yordam ko'rsatish foydalidir.

O'qituvchi mahalliy sharoitlar va o'quvchilarning o'zlashtirishlarini hisobga olgan holda dasturda tavsiya etilgan mashg'ulot turlarga mos ravishda o'quv vazifalarini mustaqil tuzib chiqishi mumkin. Bunda u o'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan 5 ta komponentni:

1. O'quv vazifalarini shakl, rang, fazo, kompozitsiya (tuzish, ijod qilish) tuzilishi va boshqalar;

2. Mashg'ulot mavzulari va ish obyektlarini;

3. Ish turlarini o'ziga qarab, fantaziya asosida rasm chizish va boshqalar;

4. Materiallar va ishlash usullarini;

5. Atama va tushunchalarni hisobga olishi kerak.

Tasviriy san'at va badiiy ijod darslari ko'rgazmali qurollar va zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlanishi kerak. O'qituvchi darsda rasm chizishning asosiy qoida va yo'llarini sinf doskasiga chizib ko'rsata olishi lozim. Shuningdek, u o'quvchilarning ish joyini mashg'ulotga tayyorlash va ish tugagach uni yig'ishtirib qo'yishiga, ish jarayonida sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilishga odatlantirib borishi lozim.

Borliqni va san'atni idrok etish. Bu bo'lim bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ikki qismdan iborat. Ular o'quvchilarning estetik va badiiy didini, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarini o'stirishda muhim ro'l o'ynadi. Borliqni estetik idrok etish mashg'ulotlari, odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o'tkaziladi. Bunda mavzuning mazmunini, kompozitsiyasini boyituvchi tegishli muhim obyektlarni yaxshilab kuzatadilar.

Dasturda borliqni estetik idrok etish mashg'uloti uchun maxsus o'quv soatlari ajratilgan. O'qituvchi o'z imkoniyati va sharoitidan kelib chiqib, darsni suhbat tarzida yoki amaliy mashg'ulot bilan qo'shib o'tkazishi mumkin.

Sayohat tarzida mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar ayrim obyektlarning homaki rasmini oddiy qalamda yoki bo'yoqda ishlashlari mumkin. Mavzuli kompozitsiyalar esa ana shu homaki rasmlar, ishlar asosida tuziladi.

Borliqni to'laqonli idrok etish, tevarak-atrofni, borliqni, hayotni bevosita kuzatish asosida olingan tassurotlar, tushunchalar hamda atrof-muhitga nisbatan faol munosabatda bo'lish bilan bog'likdir. Boshlang'ich sinflarda bolalar o'simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko'rinishlari, kayfiyati quvonchli, g'amgin, o'ychan va hokazo haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Qalamni to'g'ri ushlashga o'rgatish. Boshlang'ich sinflarda borliq haqida suhbatlar o'tkazish o'quvchilarga hayotdagi ba'zi bir hodisalarni kengroq bilib olishlariga yordam beradi. Narsalarning shakli, tuzilishini ma'lum miqdorda taxlil qilish va umumlashtirish qobiliyatlarini o'stirish imkonini yaratadi. Me'morchilik va qurilish ishlari, shahar va qishloq manzarasining o'ziga xosligi va go'zalligini, me'morchilikning tabiat bilan bog'likligi hamda binolarning turli ko'rinishlari bilan tanishish o'quvchilarning badiiy faoliyatiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning badiiy faoliyatini faollashtirishga, mehnat jarayonlarining go'zalligi ham, mehnat qurollari haqida suhbatlar ham, mamlakatimiz, viloyat va tumanlarimizning tabiati va xalqlarning hayoti bilan tanishtirish ham katta yordam beradi.

Naturaga qarab tasvirlash

Naturaga qarab tasvirlash ham o'z navbatida ikki turga bo'linadi: A) naturaga qarab rasm ishlash. B) naturaga qarab haykal ishlash.

Naturaga qarab rasm ishlash dastur materiallarini o'zlashtirishning muhim shaklidir. Naturaga qarab rasm ishlash o'quvchilarda narsa va hodisalarning hajmi va fazoda joylanishini to'la-to'kis idrok etishni ta'minlaydi, shuningdek narsa va hodisalarning bir muncha tipik belgilarini kuzata bilish va aks ettira olish qobiliyatini ham o'stiradi. Dars jarayonida o'quvchilar ishlanayotgan rasmning tasvirlanayotgan narsa va hodisaning mazmuniga mos kelishini e'tiborga olishlari, rasm ishlashda barcha ifodalanayotgan detallarning asosiy bosh maqsadga bo'ysindirilishini, bunda tasvirlashning eng ifodali yo'lini topa bilishni o'rganishlari zarur bo'ladi. Ular rasmda narsalarning nisbat va rangning uyg'unligini, yuqori yoki quyi ufqning ifodaliligini, yoritilganligi va xususiyatlarini

estetik ifodaliligini his eta olishni o'rganib olishlari lozim. O'quvchilar rejaga qarab turli materiallardan foydalanishni bilishlari ham zarur.

Natyurmortning bosqichma-bosqich ko'rinishi

1-4-sinflarda asosiy vazifa o'quvchilarda narsalarning nisbati, tuzilishi, shakli, rangi, hajmini imkoni nuqtai nazaridan tahlil qilish va tasvirlash malakasini hosil qilishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar avval tasvirlanayotgan narsaning umumiy estetik jihatdan ahamiyatli tomonlarini aniqlab oladilar, keyin esa narsaning qismlari va detallarini aks ettirishni o'rganadilar. 1-3-sinflarda o'ziga qarab yoki xotiradan tasavvurdan rasmi chizilgan narsalar shakli perespektiv (ufq chizig'i) o'zgarishlarni aks ettirish talab etilmaydigan holda qo'yiladi. Bu sinflarda har bir partaga ulashib beriladigan yupqa modellardan foydalaniladi.

Naturaga qarab haykal ishlash-o'quvchilar uchun qiziqarli mashg'ulot turi bo'lib, naturani ko'ra bilish uning asosiy shaklini, tuzilishi va o'zaro nisbatlarni ajrata olishga o'rgatadi. Shuningdek haykaltaroshlikda qo'llaniladigan material va asboblardan ishlash yuzasidan muayyan bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qiladi. Bulardan tashqari o'quvchilar tuzilishi jihatidan unchalik murakkab bo'lmagan haykallarni alohida-alohida va yaxlit loy bo'laklaridan ishlash yo'llarini o'rganadilar.

Kompazitsiya tuzish va ijod qilish.

I-IV inklyuziv sinflarda Kompozitsiya:

a) Rangtasvirda kompozitsiya; Rangtasvirda kompozitsiya-mavzu asosida, xotira va tasavvurdan hamda illyustrativ rasmlar ishlash jarayonida o'z aksini topadi. Bunda tanlangan mavzuning mazmuniga ko'ra, uning elementlari qog'oz yuzasidan bir-biriga bog'lik holda joylashib, yaxlit kompozitsiyani topish uchun bir qancha homaki ishlar, eskizlar ishlaydilar va ulardan maqsadga muvofiq keladiganlarini tanlab olib, kompozitsiya tuzishda qo'llaydilar. Rangtasvirda o'quvchilar kompozitsiya bo'yicha mashg'ulotning ikki turi yuzasidan ish olib boradilar:

1) o'zida tevarak-atrofdagi hayotni aks ettiruvchi mavzularda kompozitsiya ishlash;

2) adabiy asarlarning syujeti asosida kompozitsiya ishlash.

b) Dekorativ ishlarda kompozitsiya; Dekorativ ishlarda kompozitsiya - turli shakldagi naqshlarning na'munasidan ko'chirish va mustaqil ishlashni hamda dekorativ-bezak ishlari singarilarni qamrab oladi. U o'quvchilarga turmushda uchraydigan narsalarning vazifalari, ularning shakli, bezak elementlarining o'zaro bog'likligi haqida tushuncha berishni, hamda yuksak mahorat bilan tasvirlangan narsalarni, didsiz, pala-partish, ishlangan narsalardan farq qila bilishga o'rgatishni, shuningdek ularning badiiy didini tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. Dekorativ rasm ishlash darslarida bolalarga har qanday naqshlarning elementlari, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardan olingani haqida tushuncha beriladi.

d) Haykaltaroshlikda kompozitsiya; Mavzu asosidagi haykaltaroshlikda o'quvchilar jamoa bo'lib o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mavzularda haykallar ishlaydilar. Bunda o'quvchilar tasviriy san'atning boshqa turlarida orttirilgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanadilar. Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida loy va plastilinga badiiy ishlov berishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, ular yaxlit, alohida-alohida va aralash-loy yoki plastilin bo'laklariga ishlov berishdan iborat bo'ladi. Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida o'quvchilar loy yoki plastilinni dumaloqlash, bosib yalpaytirish, siqimlab cho'zish, ortiqcha qismlarini maxsus sidirgich yordami bilan olib tashlash, styok (haykaltaroshlikda ishlatiladigan yog'och pichoqcha) bilan ishlash kabi usullar bilan tanishtiradilar.

Badiiy qurush yasash: I-IV sinflarda o'tkaziladigan badiiy qurish-yasash mashg'ulotlari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, badiiy-tehnika harakterga egadir.

O'quvchilarning badiiy ko'rish-yasash faoliyatlari ko'pincha mazmunli, o'yin xarakterida tashkil etiladi. Badiiy ko'rish-yasash jarayonida qo'llaniladigan materiallar xarakteriga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

-turmushda qo'llaniladigan buyum va narsalardan (gazlamalar, qog'oz, karton, qutichalar, ipdan bo'shagan g'altaklar, gugurt qutichalari kabi materiallardan) qurish-yasash;

-tabiiy materiallardan qurish-yasash.

Kiyimlarni gazlama, qog‘oz, karton va tashlandiq materiallardan qurish-yasash serqirra ish bo‘lib, u o‘quvchilardan ko‘proq ijodiy yondoshishni talab etadi. O‘quvchilar ana shu materiallarga qo‘shimcha ishlov berish yo‘li bilan turli ijodiy ishlarni amalga oshiradilar. Mazkur materiallar tarkibiga tabiiy materiallardan qo‘shib ishlatilishi mashg‘ulotlarning yanada qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Bolalarni badiiy qurish-yasashga o‘rgatish.

Turli katta-kichiklikdagi o‘yinchoqlar, gullar, niqoblar va shu kabilarni tayyorlash jarayonida o‘quvchilarning tasavvurlari, fantaziyalari, ijodiy qobiliyatlari yanada rivojlanadi, kengayadi. O‘quvchilarga na‘muna tariqasida turli uy va yovvoyi hayvonlarning o‘yinchoq nusxalari, rasmlari, diapozitivlari yoki jonli burchakdan hayvonlarning o‘zlarini olib kelib ko‘rsatib qo‘yish tavsiya etiladi. Badiiy qurish-yasash mashg‘ulotlarida o‘quvchilar archa o‘yinchoqlari, dekorativ gullar, dekorativ applikatsiyalar yasaydilar va ulardan sinf xonasini, yo‘laklarni, saxnani bezashda foydalanishadilar.

Rangshunoslik: Rangshunoslik o‘quvchilarga ranglar va uning nomlari, turlari hamda ularning kishilar hayotidagi ahamiyati haqida bilimlar berishni vazifa qilib qo‘yadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar asosan akvarel va guash bo‘yoqlar bilan rasm ishlaydilar. Rangtasvir, dekorativ ishlarni bajarish jarayonida asosiy va hosila ranglar, ularning turlari asosida ish olib borishga to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning «rangshunoslik» bo‘yicha ma‘lum miqdorda bilim, malaka va ko‘nikmalar hosil qilishga olib keladi.

Alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni rang bilan ishlashga o‘rgatish.

Avvalo o‘quvchilar 1-sinfda asosan “Asosiy va hosila ranglar” bilan tanishadilar. Ularning nomlarini yod olib boshqa ranglardan ajratib ko‘rsatishni bilib oladilar, o‘zaro aralashtirish orqali yangi ranglar hosil qilish bilan amaliy ravishda shug‘ullanadilar. Asosiy (qizil, zangori va sariq) ranglar va ularning aralashuvidan hosil bo‘lgan yangi (yashil, binafsha, zarg‘aldoq) ranglardan o‘z ish faoliyatlarida to‘g‘ri foydalana olishni o‘rganadilar.

O'quvchilarga 2-sinfda "Iliq va sovuq ranglar", "Rang tuslari" va boshqa mavzular beriladi. Bunda o'quvchilar "Ranglar halqasi" bilan yaqindan tanishadilar. Iliq ranglar tarkibiga-sariq, zarg'aldoq, sovuq ranglar tarkibiga kiruvchi-zangori, havo rang, binafsha kabi ranglarning nomlarini o'rganib, tevarak-atrofdan ana shunday ranglarni topishni o'rganadilar. Rang tuslari-bir rangning har xil ko'rinishi mavjud bo'yoq tarkibiga suvni oz yoki ko'p qo'shish orqali hosil qilinadi. Bunda rangning masalan, qizil rang to'qdan eng och ko'rinishgacha bir talay tuslari hosil bo'ladi. O'quvchilar dars jarayonida amaliy tarzda rang tuslarini hosil qilishni bajarib ko'radilar.

3-sinfda o'quvchilar "axromatik ranglar" (to'q ranglar) haqida tushunchaga ega bo'lib boradilar. Shuningdek, axromatik va xromatik (och rang) ranglarning o'zaro hamkorligidan rangtasvir ishlashda, dekorativ ishlarni bajarishda samarali qo'llanishni o'zlashtiradilar. O'quvchilarda atrof-muhitdagi, borliqdagi rang tuslarining boyligi va xilma-xilligi haqida tushuncha hosil qilish uchun "Tabiatda rang" mavzusi kiritilgan. O'quvchilar sayohat paytida, darsda o'rgangan ranglarni va ularning tuslarini tabiat qo'ynidan topishga harakat qiladilar.

4-sinfda "Rangshunoslik" bo'yicha beriladigan nazariy bilimlar kundalik turmushda uchraydigan ranglar va ularning inson his-tuyg'ulariga, kayfiyatiga ta'siri, havo perspektivasi bilan bog'lik bo'ladi.

Bulardan tashqari o'quvchilar o'zlari yashab turgan joyda mavjud bo'lgan idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, yog'och buyumlarining qanday rangda va nima uchun ana shu rangga bo'yalganligi haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Chunki, ranglar inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayrimlari ko'zni quvontirib, kayfiyatni chog' qiladilar, ba'zi birlari esa kishi ko'ngliga g'ashlik, g'amguzorlik uyg'otadi. Ana shunga ko'ra rangtasvir ishlashda va dekorativ ishlarni bajarishda kishi didini o'stiradigan, ko'zni quvontiradigan ochiq ranglardan foydalanish lozimligi o'quvchilarga uqtiriladi. Mavzu asosida kompozitsiyalarni bajarishda ko'pincha manzaralarni tasvirlash orqali uning ta'sirchanligi oshiriladi. Rasmda uzoq, yaqinlikni ifodalashda "havo perspektivasi" ga rioya qilish maqsadga muvofiqdir. Kuzatuvchidan narsalarning uzoq va yaqinligiga qarab ularning

ranglari va o'lchamlari ham o'zgarib boradi. Yaqinroqda joylashgan narsalarning ranglari uzoqdagi narsalarning rangiga nisbatan tiniqroq, ravshanroq ko'rinadi. Uzoqdagi narsalar rangining o'zgarib borishida esa havo qatlamining ta'sir bo'ladi. Mavzu asosida kompozitsiyalar bajarayotganda ana shu qoidalarga e'tibor berib boriladi.

Sinfdan tashqari ishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Tasviriyl san'at va badiiy ijodga doir to'garaklarni tuzish; tasviriyl va amaliyl san'at ustalari bilan uchrashuvlar o'tkazish, leksiylalar va mavzuga bag'ishlab ertaliklar tashkil etish;

2. Tasviriyl san'at asarlari reproduksiylasining davriyl ko'rgazmalarini tashkil etish; tasviriyl ijodda o'quvchilarning sinf va sinfdan tashqari bajargan ishlarining yillik hisobot ko'riklarini uyushtirish;

3. Narsaning o'ziga qarab eng yaxshi chizilgan rasmlar, adabiy asarga ishlangan eng yaxshi illyustratsiylalar, dekorativ-amaliyl xarakterdagi kompozitsiylalar, tabiiyl materiallardan yong'oq, dub-yong'og'i, o'simliklar ildizi va shu kabilardan qurish-yasash ishlariga oid konkurslar o'tkazish, bu konkursdagi o'quvchilar ishini maktab xayoti bilan, uning bezaklari, maktab devoriyl gazetasini bezatishda qo'llash bilan amalga oshirish. Galeriya va muzeylarga, san'at yodgorliklariga, rassom va haykaltaroshlar ustaxonalariga, xalq badiiy hunarmandchilik korxonalariga ekskursiylalar uyushtirish. Tasviriyl san'at o'qitishning muvafaqqiylatiga fanlararo aloqalar ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu predmetni boshlang'ich sinfdagi hamma o'quv fanlari bilan bog'lash e'tiborga loyiq.

Do'stona munosabat muhitini yaratish

Muloqot faqat insoniyatga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliylat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. O'zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi.

Muloqot - odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliylat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliylat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni

o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o'zaro aloqaga doir) jihatini hisobga olinadi. Muloqot- hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayonidir. Bolalar maktab yoshiga yetganda ularning bir-birlariga nisbatan munosabatlari yangicha mazmun kasb etadi. Bola ilgari ota-onasi, guruhdagi tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqotda bo'lgan bo'lsa, endi maktab o'qituvchisi, sinf rahbari maktab psixologi hamda maxsus o'qituvchi bilan muloqotda bo'ladi. Bolalarda bu davrda mas'uliyat hissi shakllanadi. Bolalar nutqining o'sishida ularning maktabda o'qishi katta rol o'ynaydi. Bola maktabgacha yoshda o'ylamasdan gapiradi, maktabda esa u gaplashayotgan til o'qitiladigan va o'rganiladigan ilm bo'lib qoladi. Grammatikani o'qib o'rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihatini to'g'ri bo'lib boradi, nutqning sintaksis tuzilishi takomillashadi. Maktabda o'qitilayotgan hamma fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchi nutqining lug'ati boyiydi, so'zlarning mazmuni uning uchun chuqurlashadi va kengayadi. Bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqining o'sishida muhim bosqich bo'ladi. Bola o'z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O'quvchi o'qituvchining topshirig'iga binoan yozma ishlar bajarayotganda o'zining shu ishga o'z fikrining qanday til bilan bayon qilganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. O'quvchi maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o'ziga o'zi gapirib berishni mashq qilib turishi nutqining o'sishiga katta ta'sir qiladi. Bolalar nutqining o'sishida o'qituvchining nutqi katta rol o'ynaydi, chunki uning nutqi o'quvchilar uchun namuna hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashi kerak. Maktabda bolalar uchun eng avvalo faol ishlatiladigan so'zlarning miqdori oshadi. Yozma nutqni, o'qish va yozishni o'zlashtirish o'quvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tovushlarni bir-biriga qo'shish orqali so'z tuzish malakasini egallab olgach, ba'zida matn mazmunini noto'g'ri tushunadilar. Unga o'quvchilarning so'z boyligining kamligi yoki asosiy fikrni ajrata bilmasligi sabab bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchi oldida bolalarda lug'at boyligini oshirish va o'qigan narsalari yuzasidan mustaqil reja tuzishga barvaqtroq o'rgatish vazifasi turadi. Yozuv darslarida bola harf va

soʻzlarni yozishda katta qiyinchilikka duch keladi. Dastlab bola butun eʼtiborini yozish texnikasiga va oʻtirish qoidasiga rioya qilishga qaratadi. Avval bolaning yozma nutqi uning ogʻzaki nutqi orqali belgilanadi, yaʼni u soʻzni qanday talaffuz etsa shunday yozadi. Bu davrda bola bilan ovoz chiqarib aytish boʻyicha muntazam mashqlar oʻtkazish uning imlo qoidalarini muvaffaqiyatli oʻzlashtirishida katta ahamiyatga ega. Yozma nutqda imo-ishora, ohangdan foydalanilmaydi. Shu bois bolalarning yozma nutqlari ularning ogʻzaki nutqiga qaraganda ancha boʻsh boʻladi. Bolalar nutqi kattalar nutqi taʼsirida oʻsadi. Shuning uchun pedagoglar bolalarga kichik maktab yoshidan boshlab ogʻzaki va yozma nutqni oʻstirish bilan birga nutq madaniyatini ham oʻrgatib borishlari zarur.

Alohida taʼlimga ehtiyoji boʻlgan oʻquvchilar maktabga qabul qilingandan keyin har biri tibbiy tashxisiga koʻra belgilangan joyida oʻtiradi. Yaʼni:

- koʻrishida muammosi boʻlgan zaif koʻruvchi oʻquvchi oʻrtadan 1-partada;
- eshitishida muammosi boʻlgan zaif eshituvchi oʻquvchi tashqi oyna tomondagi 1-partada;

- aqliy, ruhiy autistik spektorida muammosi boʻlgan oʻquvchilar eshik tomondagi 1-partada;

- tayanch-harakatida muammosi boʻlgan oʻquvchilar uchun esa xavfsiz kirib chiqishi uchun qulay joy ajratish kerak boʻladi. Dastlab alohida taʼlimga ehtiyoji boʻlgan oʻquvchi maktabga, sinfga, tengdoshlari va jamoaga moslashguncha dars mashgʻulotlariga kirib kuzatadi. Oʻquvchining qiziqish va layoqatini aniqlab olib shu asosida oʻzi uchun individual dastur tuzib oladi. Darsdan keyin ushbu oʻquvchilar bilan individual hamda frontal mashgʻulotlar olib boradi. Maktab psixologi esa maktabda ularga nisbatan bagʻrikenglik va hushmuomalada boʻlishni taʼminlashi lozim boʻladi. Bunday oʻquvchilarni qolaversa ularning ota-onalarini ham hech kim kamsitib qoʻymasligi va ularga nisbatan sogʻlom fikrda boʻlish uchun ham psixolog javobgar boʻladi. Inklyuziv sinflar tashkil etilgan umumtaʼlim maktablarida boshdan oyoq har bir sinfdan doʻstona munosabat oʻrnatilsa koʻzlangan maqsadga erishiladi. Ota-onalar esa sinf va maxsus oʻqituvchi bergan vazifalarni uyda takrorlashi lozim.

Inklyuziv sinflarda oila, maktab hamkorligi va uning ahamiyati

Oila bilan ishlashning asosiy maqsadi - Barcha oila a'zolarining (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual) shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek bolani va oilani himoya qilish, turli omillarni bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siridan himoya qilish.

Ota-onani hamkorlikka jalb qilishning afzalliklari:

- ta'lim jarayoniga qamrab olingan kunga qadar o'quvchi hayotining tarixini yetkazib bera oladi;
- o'quvchi haqidagi muhim tibbiy ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin;
- vaqt o'tishi bilan dasturlashning uzluksizligini ta'minlashga yordam berishi mumkin;
- bolaning uyga va jamiyatga bo'lgan qiziqish va intilishlari, hayotiy ko'nikmalarga oid muhim ma'lumotlarga ega bo'ladi;
- maqsad va samarali strategiyalarni ishlab chiqishda yordam berishi mumkin;
- uy sharoitida bolaning shaxsiy mahoratini mashq qildirish, ularni mustahkamlash, umumlashtirish va saqlash uchun imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

Oila bilan uyushgan hamkorlik jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- oilaning yashash sharoitlarini o'rganish;
- oilaning umumiy muammolari va uning xususiyatlarini, boshqalardan farqini aniqlash;
- oilaning maqsadlari va umidlarini aniqlashtirish;
- javob berish shakllarini kuzatish (ular jim, gapirishadi, janjallashishadi, o'zini tajovuzkor tutishadi, ishonmaydilar va hokazo);
- bu oilaga yordam bergan va hozirda yordam berayotganlarni o'rganish;
- uning a'zolarining oilasidan chiqishining ta'siri;
- oilaning o'tmishini o'rganish;
- oila a'zolarining shaxsiy xususiyatlarini o'rganish.

Inklyuziv boshlang'ich sinf o'qituvchisi har doim alohida ta'lim ehtiyojli o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqotda bo'lishadi. Ushbu muloqot uchun ba'zi tavsiyalar:

- ota-onalar bilan muloqot o'rnatish jarayonida sof adabiy tilda (samimiy) ochiq va muntazam ravishda muloqot qilish;
- ota-onalarni ta'lim jarayonida qanday qilib ishtirok etishlari mumkinligini tushuntirish ya'ni maktabga har qanday vaqti kelib ta'lim jarayoni kuzatib borishi, farzandini dars jarayonidagi ishtirokini kuzatishi mumkin;
- ota-onalarga bolaning milliy ta'lim dasturida qanday va qay darajada ishtirok etishini o'rgatish (asosan yakka mashg'ulotlarda);
- ota-onalarga tarbiya dasturlari va qo'llab-quvvatlash guruhlariga kirish huquqini berish (sinf va maktab yig'ilishida qatnashishini ta'minlash va ularni jalb qilish);
- ota-onalar bilan aloqa bog'lash ya'ni: telefon yoki yozma aloqa bog'lash, ularni qo'llab-quvvatlash guruhi yig'ilishlari to'g'risida xabardor qilish;
- qo'llab-quvvatlash guruhi yig'ilishlarida muhokama qilinadigan va ishtirok etadigan mavzular bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish;
- yig'ilish oldidan ota-onalarga tanishish uchun uyga maqsad va vazifalarning taxminiy loyihasini yuborish;
- maktab vakili ota-onalarni kutib olishi, ularni konferensiya zaliga olib borishi va mavzu yuzasidan tanishtirishi kerak;
- ota-onalarning jamoa yig'ilishida qulay bo'lishini ta'minlash (zerikarli va ota-onalar tushunmaydigan bo'lmasligi kerak);

Maxsus o'qituvchi:

Maxsus o'qituvchi butun ta'lim jarayonida korreksion rivojlantiruvchi faoliyat olib boradi. Sinf o'qituvchisi tomonidan o'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzu yuzasidan alohida ehtiyojli o'quvchiga individual tarzda tushuntirib beradi. Ya'ni:

o'quvchilarning kuchli tomonlarini va ehtiyojli sohalarini aniqlash uchun diagnostik baholashni ta'minlaydi;

- o‘qituvchiga baholash jarayonida materiallar va manbalardan foydalanish borasida maslahatlar beradi;

- milliy dastur asosidagi ta’limni samarali o‘zlashtirilishida muhim o‘rindagi maxsus yondoshuvlarni amalga oshiradi;

- o‘quvchilarning bilimni nazoratini to‘g‘ri amalga oshirilishi va baholanishi uchun tavsiyalar ishlab chiqadi;

- o‘quvchilar bilan individual ta’lim dasturlarini, nuqsonlarni tuzatish (korreksiya) va ular bilan bog‘liq bola rivojlanishining o‘ziga xosliklarini bartaraf etish ishlarini amalga oshiradi;

- maktabda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda ishtirok etadi;

- ota-onalar va keng jamoatchilikka maslahat beradi.

Maktab:

Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga qamrab oladi va alohida ta’lim olish ehtiyoji bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo‘naltirishda har tomonlama yordam ko‘rsatadi.

Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolani o‘ziga o‘xshagan nogironligi bo‘lgan bolalar emas sog‘lom bolalar bilan birgalikda ta’lim olishiga zamin yaratadi.

Inklyuziv ta’lim haqida tushunchaga ega bo‘lgan ota-onalarni endilikda inklyuziv ta’limda o‘qiydigan farzandi bo‘lgan oilalarga tashriflarini tashkil etish;

- ota-onalar uchun uyushma yoki o‘z-o‘ziga yordam guruhini tashkil etishga yordam berish (telegram guruhlari);

- ta’lim jarayonida sinfdagi biror narsani tuzatishga yoki tuzishga yordam berish uchun otalarni taklif qilish;

- maktab komissiyalari yoki yig‘ilishlarida ota-onalarning vakilligini ta’minlash;

- ota-onalarga bolalar uchun sevimli mashg‘ulotlarni tashkil etishda yordam berish;

- ota-onalarning o'z huquqlarini himoya qilishlarini ta'minlash, qonunchilik va xizmatlar ko'rsatishga ta'sir ko'rsatadigan jamoat tashkilotlarining ishlariga jalb qilish.

Maktabni ota-onalar bilan bevosita ishlashi:

- ota-onalar bilan navbatdan tashqari uchrashuvlarlar tashkil qilish, ular bilan ma'lumot almashish, bajarilgan va rejalashtirilgan ishlarning borishi va bolaning muvaffaqiyatlari haqida va kelajakdagi rejalarini muhokama qilish;

- ota-onalar yig'ilishidagi har bir berilgan savol va takliflarni yozib olish va muhokama qilish;

ota-onalar uchun maxsus seminar, diolog, suhbat, rolli o'yinlar tashkil etish;

- inklyuziv ta'lim bo'yicha barcha ota -onalar uchun maxsus kurs tashkil etish;

- madaniy tadbirlarni o'tkazish va uni senariysini tayyorlashda ota -onalarni jalb qilish;

- ota-onalardan inklyuziv ta'limga bo'lgan o'z munosabatlarini, ko'rsatiladigan yordamdan keyingi umidlari haqida suhbatlashish.

Ota-onalar bilvosita ishlash:

- ota-onalarga har qanday sharoitda va har qanday holatlarda aniq mutaxassislar bilan bog'lanish haqida ma'lumot berish (psixolog, o'qituvchi, direktor, direktorning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari);

- ota-onalar uchun maktabda yoki sinf xonasida kitoblar, uslubiy adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil etish;

- o'quvchilar bilimini, o'zlashtirish jarayonini, darslarga bo'lgan qiziqishlarini, adaptatsiya holatini kuzatib borishi uchun ota-onalarga mos tarqatma materiallar tayyorlash;

- uyda ota-onalarga ham alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchiga mo'ljallangan metodik adabiyaotlar tarqatish;

- ota-onalarga uy vazifasi yoki bo'lajak tadbir, dam olish imkoniyatlari uchun yozma takliflar tayyorlash;

- ota-onalarning ehtiyoji va fikrlarini aniqlash uchun ma'lum bir grafik asosida so'rovnomalarni yuborish;

- maktabga farzandini olib ketish uchun kelgan ota-onalarga kutish joylarida stend yoki e'lonlar taxtasini tashkil etish.

Hamkorlik natijasida ommaviy maktabda ta'lim olayotgan sog'lom bolalarda va ularning ota-onalarida aniqlangan muammolar:

Odatiy shaklda ta'lim olayotgan bolalarning ota-onalari, ba'zida alohida ta'lmga ehtiyoji bo'lgan o'quvchi sinfda bo'lishi, o'z farzandining rivojlanishini kechikishi mumkinligidan tashvishda bo'ladilar, biroq tajribalar buning aksini ko'rsatadi. Odatiy shaklda maxsus maktab-internatlarda ta'lim olayotgan bolalarning ko'rsatkichlaridan inklyuziv ta'lim sharoitda o'qiyotgan bolalarning natijalari yuqoriroq chiqqanligi isbotlandi. Inklyuziv ta'lim olayotgan va ommaviy maktab sinfidagi bolalarning ota-onalari ham hech qanday tahlikaga tushmasligi kerak, chunki biz do'stona munosabatlarga asoslangan milliy qadriyatlari yuksak davlatning fuqarolarimiz. Bizda hech qachon o'zgani kamsitish uni ustidan kulish chetga chiqarib tashlash holatlari kuzatilmaydi. Inklyuziv maktabda o'qiyotgan bolalarning yutuqlariga kelsak, xulq-atvorida, ijtimoiy rivojlanishida va akademik muvaffaqiyatlarida undan tashqari nutqida ham sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

Mahalla

Keng jamoatchilik orqasida har bir oilaning ijtimoiy psixologik holatini, yashash sharoitlari o'rganish;

Mahalladagi o'yin maydonchalarida nogironligi bo'lgan bolalar uchun qulay yo'l, o'yin maydonchalaridan foydalanish uchun maxsus panduslar, yordamchi vositalar bilan ta'minlash;

Nogironligi bo'lgan farzandi mavjud oilaning umumiy muammolari hamda har bir oilaning xususiyatlarini, boshqalaridan farqini aniqlash;

Har bir oilaning tarixini (surunkali kasalliklar, qarindoshlar orasidagi nikoh) o'rganish, oila a'zolarining shaxsiy xususiyatlarini, maqsadlari va umidlarini aniqlashtirish;

Nogironligi bo'lgan bolalarni maktabdagi ta'limini samarali kechishini nazoratini olib borishda ishtirok etadi;

Nogironligi bo'lgan oilalar uchun alohida sharoitlar yaratadi;

Ko'p qavatli uylar hamda maishiy xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan joylarga kirish, uchun panduslar bo'lishini ta'minlash;

Mahallada bolalar orasida tolerantlik, do'stona munosabat muhitini shakllantiruvchi tadbirlar olib borish;

Nogironligi bo'lgan farzandi mavjud oilaga beg'araz yordam bergan va hozirgi kunda hamda yordam berayotganlarni o'rganish, ularni keng jamoatchilik vakillari bilan suhbat jarayonini kuzatish (ular jim, gapirishadi, janjallashishadi, o'zini tajovuzkor tutishadi, ishonmaydilar va hokazo);

Oila bilan ishlash jarayonining bosqichlari:

Birinchi bosqich. Disfunktsional oilalarni aniqlash.

Nosoz oilalarni aniqlash uchun ijtimoiy o'qituvchi oilani o'rganishning turli usullaridan foydalanadi:

- bolalarni nazorat qilish;
- so'roq qilish, ota-onalar va bolalarni so'roq qilish.

Oilaviy diagnostika - bu oilaga yordam va qo'llab-quvvatlash tizimi asos bo'lgan doimiy komponent. Diagnostik muolajalarni o'tkazish bir qator printsiplarga rioya qilishni talab qiladi: murakkablik, xolislik, yetarlilik, izchillik va boshqalar. Agar kerakli ko'rsatmalar bo'lmasa, siz tashxisni kengaytirmasligingiz kerak. Yangi tadqiqot faqat oldingi diagnostika ma'lumotlarini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi mumkin. Siz ota-onalarning shikoyatlarini dastlabki tashxisidan boshlashingiz kerak, so'ngra ushbu shikoyatlarning to'g'riligini o'rganib, bu buzilishlarning sabablarini aniqlab olishingiz kerak.

Ikkinchi bosqich. Oilaviy tarbiya turlarini aniqlash.

Bu bosqichda ijtimoiy pedagog ota-ona munosabatlarini o'rganishga qaratilgan usullardan foydalanadi; har bir oila a'zosining yetakchi xulq-atvorini aniqlash; oiladagi muloqot tabiatini o'rganish.

Uchinchi bosqich. Oila bilan ishlash shakllari va usullarini farqlash.

O'qituvchi oilaviy ta'limning keng tarqalgan turini hisobga olgan holda oilada bolaga bo'lgan munosabatni to'g'rilashga qaratilgan oila bilan ishlash rejasini ishlab chiqadi.

To'rtinchi bosqich. Birgalikda ishlashni tashkil qilish.

Oilaga yordam berish uchun (axborot, vositachilik, bo'sh vaqt, ijtimoiy va pedagogik) turli mutaxassislar bilan hamkorlik zarur (pedagogik xodimlar, vasiylik va homiylik bo'limining inspektori, ijtimoiy himoya va boshqalar).

Oila bilan ishlashning asosiy funksiyalari:

Xavfsizlik va himoya funksiyasi. Bu bolalar hayoti xavfsizligini, tashqi tahdidlardan himoyalaniшни ta'minlash, bolaning qonuniy huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qilish hamda unga shoshilinch yordam ko'rsatishga qaratilgan.

Profilaktika funksiyasi. Boshqa muassasalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda o'qituvchilar nochor oilalarni erta aniqlash bo'yicha ish olib boradilar, oila ichidagi nizolarni hal qilishda o'z vaqtida yordam ko'rsatadilar, oilaviy ta'lim sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beradilar, malakali huquqiy va psixologik yordam ko'rsatadilar.

Qayta tiklash funksiyasi. O'qituvchilar oiladagi bolalarning yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha chora -tadbirlar ko'rsatsalar, bolaning ijtimoiy mavqeini tiklashga yordam beradi, uning sotsializatsiyaning asosiy institutlari bilan aloqalarini mustahkamlaydi, funksional muvaffaqiyatsizlikni yengishga tayyor oilalarning harakatlarini qo'llab -quvvatlaydi.

Tuzatish va rivojlanish funksiyasi. Kompleks diagnostika asosida bolalar va uning oilasi bilan tibbiy -ijtimoiy, psixologik va pedagogik ishlarning chora -tadbirlari tizimi aniqlanadi.

Sog'lomlashtirish funksiyasi. Bolaning sog'lig'ini mustahkamlash bo'yicha hamrohlik va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kompensatsiya funksiyasi. Bu, agar bolaning begonalashuvini bartaraf etishning iloji bo'lmasa, biologik oilani almashtirish yo'llarini topishdan iborat.

Mutaxassislarning oilalari bilan faoliyati uchta yo‘nalishda amalga oshiriladi: ta’limiy, psixologik va vositachilik.

Ta’lim yo‘nalishi. Ota-onalarga ta’lim va tarbiyada yordam berishni o‘z ichiga oladi. O‘qitishga yordam ota-onalarning pedagogik madaniyatini shakllantirishga va ularni tarbiyalashga qaratilgan.

Tarbiyaviy yo‘nalish. Tarbiyada yordam berish oilaning tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlash maqsadida maxsus tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish orqali amalga oshiriladi. Bu yo‘nalish oilaviy yordamning pedagogik modelidan foydalanishga asoslangan.

Psixologik yo‘nalish. Ijtimoiy va psixologik yordam va tuzatishni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi lavozimidan bunday qo‘llab -quvvatlash oilada qulay psixologik muhitni yaratishga qaratilgan. Psixolog bilan ittifoq tuzishda yordam berish eng samarali bo‘ladi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchi, o‘qituvchi-defektolog va oilaning hamkorligidan kutilayotgan natijalar:

- maktabdan kattalar hayotiga o‘tishda (ijtimoiy hayotga kirishda;
- ishga joylashish imkoniyatlarida (nogironlik darajasiga qarab to‘g‘ri kasb-hunarga yo‘naltirish;
- o‘quvchining shaxsiy qiziqishlarini eshitish va inobatga olishda;
- maktabni tugatgandan keyingi hayotida turar joy variantlarida;
- alohida ehtiyojli bolalarni harakatlanishidagi kunlik ehtiyojlarini qondirish uchun transport vositalarida harakatlanish tartibini singdirish;
- tibbiy yordamdan qanday foydalanish uchun;
- keyingi ta’lim (oliy ta’lim, kollej,) haqida ma’lumot berishda;
- jamoaviy dam olish va bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazish imkoniyatlaridan foydalanishda;
- oilaviy va do‘stona munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun;
- vasiylik va mustaqil hayot uchun ko‘nikmalarni shakllantirishda.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarorida belgilangan vazifalarni Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarorlarining “Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomining 1-ilovasiga muvofiq Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);

ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);

somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);

nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojida sustlik, duduqlanish);

tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo‘y o‘sishining yetishmovchiligi — pakanalik);

aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar;

aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o‘zi harakat qila oladigan yoki qo‘shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji);

intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;

xulq-atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;

intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1 martadan oshmagan paytda). Bizga ma'lumki ularning qaysidir imkoniyatining cheklanganligi boshqa xususiyatining kuchliroq rivojlanishiga olib keladi. Agar maktab jamoasi har bir boladagi ushbu holatni to'g'ri aniqlay olsa bunday bolalar hech qachon jamiyatda qoqilmaydi. O'zi uchun sharoit yarataoladi. Ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topadi. Alohida yordamga muhtoj ekanligidan siqilish, uyalish holatlari kuzatilmaydi. Borliqdagi insonlar ham ularni tabiiy hamma bilan bir xilda qabul qiladi. Biz ushbu metodik tavsiya asosida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni ijodkorlik, badiiy ijod, hamkorlikdagi faoliyat, do'stona munosabat, kasb-hunar, Tasviriy san'at, Texnologiya va Tabiiy fanlar orqali noyob iste'dod va qobiliyatlarini aniqlashda siz-u bizga ast qotadi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabr “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi №-638-sonli Qarori.

4. Inklyuziv umumta’lim maktablari kamsituvchi munosabatlariga qarshi kurashish va jamoalarda qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, inklyuziv jamiyat qurish va barchaga ta’lim berishning eng samarali vositasi sifatida Salamanka bayonoti. (Ispaniya), 1994-yil 7-10-iyun.

5. “Dakarskie ramki deystviy”- Senegal, 2000-yil 26-28-aprel.

6. Adabiyot 5-sinf 1-qism darslik. Toshkent 2011-yil.

7. Xasanov R. Boshlang‘ich sinflarda rasm chizish metodikasi. Toshkent. O‘qituvchi 1987-yil.

8. Abdirasilov S. Tasviriy san’at atamalari. Toshkent 2003-yil

9. Xasanov R. Maktabda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. Toshkent “Fan” 2004-yil.

10. Abdirasilov S. , Tolipov N. Rangtasvir T.: “Bilim” UMKXTM, 2005-yil.

11. Шпикалова Т.Н. Народное искусство на уроках декоративного рисования, — Москва Просвещение, 1984-г.

12. Xalezova Kurochkin, Pantyuxina-Bolalar bog'chasida bolalarni loydan buyum yasashga o'rgatish. Toshkent O'qituvchi 1998-yil

13. Egamov X. To'rtinchi sinfda tasviriy san'at darslari. Toshkent O'qituvchi 1999-yil

14. Nabiev M. Rangshunoslik. Toshkent O'qituvchi 1995-yil

15. Oripov B.N. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish omillari. Toshkent. O'qituvchi 1988-y.

16. Nabiyeu M. Rangshunoslik. Toshkent O'qituvchi 1995-yil.

17. Abdirasilov S. , Tolipov N. Oripova N. Rangtasvir. T.: -O'zbekiston 2006-y.

18. K.Jo'raboyev "O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha psixologik-pedagogik o'yinlar, mashqlar va metodikalar. Toshkent 2017.

19. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. "Lesson-Press" nashriyoti, Toshkent-2021.

Mundarija

№	Mavzu nomi	Bet
1	Kirish	1
2	Boshlang'ich ta'limda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari	5-12
3	Tasviriy san'at darslarida badiiy ijodni shakllantirish	13-16
4	Natyurmortning bosqichma-bosqich ko'rinishi	17-18
5	Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni rang bilan ishlashga o'rgatish	19-22
6	Inklyuziv sinflarda oila, maktab hamkorligi va uning ahamiyati	23-30
7	Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi, o'qituvchi-defektolog va oilaning hamkorligidan kutilayotgan natijalar	31
8	Xulosa	32-33
9	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	34-35

Badiiy ijod va hamkorlikdagi faoliyat, hayotiy ko'nikmalar va do'stona munosabat muhitini yaratish

Muharrir: M.Talipova

Musahhih: I.Tursunova

Kompyuterda tayyorlovchi: G.Ibragimova

Bosishga ruxsat etildi 15.02.2023.

Qog'oz bichimi 60x84¹/₁₆. TIMES garniturasida

Shartli bosma tabog'i 6,2. Nashr tabog'i 5,8

Adadi 100. Buyurtma № 15-02.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti

Toshkent, Komolon ko'chasi, Erkin tor ko'chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko'chasi, 6-uy.